QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.34.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA MOHINUR SAYDULLO QIZI

TOHIR MALIK ASARLARIDA PARANTEZ BIRLIKLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

UO‘K: 811.512.133'367.2+821.512.133.09

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Qodirova Mohinur Saydullo Qizi
Tohir Malik asarlarida parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari …… 5

Кодирова Мохинур Сайдулло кизи
Семантико-грамматические и лингвопоэтические особенности парентетических единиц в произведениях Тохира Малика …… 23

Qodirova Mohinur Saydullo Qizi
Semantic-Grammatical and Linguopoetic Features of Parenthetical Units in the Works of Tohir Malik …… 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of Published Works …… 50

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.34.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA MOHINUR SAYDULLO QIZI

TOHIR MALIK ASARLARIDA PARANTEZ BIRLIKLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.3.PhD/Fil6436 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qo‘qon davlat universitetining veb-sahifasida (www.kokandsu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jamolitdinova Dilnoza Mirxojidinovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Azimov Inomjon Mamasodiqovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Mamajonov Muhammadjon Yusubjonovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.34.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “19” noyabr soat 8.30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: kokandsu@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (78-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: kokandsu_arm@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “4” noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “4” noyabr dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi)

I.S.Madrahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

R.A.Jo‘rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

A.I.Ziyayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XXI asr jahon tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning tez sur'atlarda rivoj topib borayotgani matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, kommunikativ sintaksis hamda lingvopoetika yo‘nalishlarida badiiy matnning mazmuniy va funksional xususiyatlarini tadqiq etishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Amaliy jarayonda muallifning individual uslubini ifodalovchi sintaktik vositalar, ayniqsa, parantez konstruksiyalarning semantik, pragmatik va lingvopoetik imkoniyatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Shu asosda badiiy matndagi parantez birliklarning funksional xususiyatlarini kompleks tadqiq etish jahon tilshunosligining ilmiy vazifalari doirasiga kiradi.

Dunyo tilshunosligida parantezalarning sintaktik tabiati, semantik tuzilishi, pragmatik funksiyalari hamda badiiy matndagi o‘rnini o‘rganish yuzasidan samarali ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Taassufki, ularning muayyan yozuvchi ijodidagi semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari, badiiy-estetik vazifalari hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi ko‘p qirrali xususiyatlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu jumladan, parantez birliklarni muayyan yozuvchi ijodi misolida kompleks o‘rganish dunyo tilshunosligining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham parantez birliklarning sintaktik, semantik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunday bo‘lsa-da, parantez birliklarning badiiy matn tarkibidagi semantik-grammatik va lingvopoetik imkoniyatlarini muayyan yozuvchi ijodi misolida tadqiq etish, ularning muallif nutqi va personajlar xarakterini ochishdagi funksional xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish zarurati milliy tilshunosligimizda saqlanib turibdi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimizning timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir”[1].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi, birinchidan, o‘zbek tilshunosligida parantez konstruksiyalarning o‘ziga xos tabiatini semantik-grammatik jihatdan ochib berish zarurati bilan, ikkinchidan, Tohir Malik asarlarida qo‘llangan parantez birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tahlil qilish ehtiyoji bilan belgilanadi, ya'ni tadqiqotda parantez birliklarning badiiy matndagi semantik va pragmatik xususiyatlari, adibning individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni hamda emotsional-ekspressiv ta'sirni yuzaga chiqarishdagi funksional imkoniyatlari yoritiladi. Mazkur masalalarni tadqiq etish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son farmoni, “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

[1] Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent. 2019-yil 21-oktabr. https://president.uz/oz/lists/view/2954

to‘g‘risida” 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son qarori, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son farmoni, “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmoni, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son farmoni, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni, “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 12-yanvardagi PQ-19-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 18-maydagi 376-son qarori, “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 11-martdagi 139-son qarori va boshqa mazkur faoliyatga taalluqli bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida parantezalarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Parantez birliklar bo‘yicha lingvistik tadqiqotlar ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus tilshunosligida XIX asrning birinchi yarmidan boshlab amalga oshirilgan. Xususan, ingliz tilshunosligida Outi Duvallon, Eva Banik, Marine Yaghubyan[2], fransuz tilshunosligida Salvador Pons Borderia, Marianne Desmets, Stefan Schneider, Silven Kahane va Paola Pietrandrea[3], nemis va ispan tilshunosligida James Griffiths, Karin Pittner, Regina Zieleke, Lorena Nunes Pinero, Catalina

[2] Outi Duvallon “Parenthesis as a resource in the grammar of conversation”. January 2005. – P. 45. DOI:10.1075/sidag.17.05duv.; Eva Banik. Parenthetical Constructions – an Argument against Modularity. In Proceedings of the 2009 Workshop on Grammar Engineering Across Frameworks (GEAF 2009). – P. 46–53. Suntec, Singapore. Association for Computational Linguistics.; Marine Yaghubyan. The Communicative Function of English Parenthetical Constructions. Armenian Folia Anglistika. Linguistics. Volume 14, N 1-2. – P. 19-28.

[3] Pons Bordería S. Parentheticals. – In: Pragmatics of Discourse. – Berlin: De Gruyter, 2014. – P. 523–548.; Desmets M. Parenthetical Verbs: The Syntax-Pragmatics Interface. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2007. – 286 p.; Schneider S. Reduced Parenthetical Clauses as Mitigators. – Amsterdam: John Benjamins, 2007. – 312 p.; Kahane S. Parenthetical Constructions and Structural Syntax. – Paris: CNRS Éditions, 2012. – 240 p. // Pietrandrea P. The Functions of Parentheticals in Spoken Language. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 274 p.

Fuentes Rodriguez, Montserrat Martinez Vasquez[4]larning ilmiy izlanishlari ham parantez konstruksiyalarning semantik-grammatik va lingvopoetik funksiyalari tahlil qilingan e'tiborga molik tadqiqotlardan hisoblanadi.

Rus tilshunosligida parantezalar borasida M.V.Lomonosov, N.I.Grech, A.X.Vostokov, E.Filomafitskiy, A.M.Peshkovskiy, A.B.Shapiro, I.I.Sheboleva, D.V.Malyavin, T.R.Kotlyar, I.A.Kiryuxina, A.I.Anikin, V.A.Itskovich, M.A.Avlasevich, V.YA.Plotkin, V.Barchunov, L.G.Xatiashvili, A.G.Rudnev, Y.P.Sedun, I.A.Babakova, T.G.Skrebtsova, A.Y.Mironina, I.S.Shishkina kabi olimlar samarali tadqiqotlar olib borgan[5]. Jumladan, N.I.Grechning asari rus tilshunosligida paranteza nazariyasining ilk shakllanishi davriga oid manbalardan biri bo'lib, unda kirish so'zlar, shuningdek, gap tarkibiga to'liq kirmaydigan birliklar haqida dastlabki ilmiy qarashlar uchraydi. Shu bilan birgalikda A.I.Anikin parantez konstruksiyalarning uslubiy hamda ekspressiv imkoniyatlarini, V.A.Itskovich gap tarkibidagi kiritma va ajratilgan birliklarni, L.G.Xatiashvili esa parantez birliklarning gap tarkibidagi kommunikativ va pragmatik imkoniyatlarini tahlil qilgan.

O'zbek tilshunosligida parantez birliklar haqida dastlabki fikrlar XX asr boshlarida A. Fitrat, A. Zohiriy, H. G'oziyevlar tomonidan ilgari surilgan[6]. Keyinchalik A. G'ulomov, M. Asqarova, I. Toshaliyev, R. Sayfullayeva, N. Mahmudov, B. Mengliyev, D. Jamolitdinova, M. Xoshimov, G. Ibragimova,

---

[4] Griffiths J. Parentheticals and the Dynamics of Syntax. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 328 p. // Pittner K. Parenthetische Konstruktionen im Deutschen. – Tübingen: Niemeyer, 2004. – 214 S. // Zieleke R. Parenthesen im gesprochenen Deutsch. – Berlin: De Gruyter, 1998. – 196 S. // Núñez Pinero L. Los elementos parentéticos en el discurso contemporáneo. – Madrid: Arco Libros, 2011. – 240 p. // Fuentes Rodríguez C. La sintaxis de los elementos parentéticos. – Sevilla: Universidad de Sevilla, 1998. – 221 p. // Martínez Vázquez M. Parenthetical Constructions and Discourse Functions. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2005. – 268 p.

[5] Ломоносов М.В. Российская грамматика / Ломоносов М.В. Полн. собр. соч. в 11-ти томах. Т.7. – М. - Л., 1952. – С. 562.; Греч Н.И. Практическая русская грамматика. – СПб.: Типография Императорской Российской академии, 1827. – 578 с.; Востоков А.Х. Русская грамматика. 12-е изд. -СПб., – 1874. – С. 216.; Филомафитский Е. О словах и предложениях как частях речи. – СПб., 1827. – 214 с.; Пешковский А.М. Школьная и научная грамматика. – М., 1914. – С. 54.; Шапиро А.Б. Современный русский язык. Пунктуация. – М.: Просвещение, 1974. – 320 с.; Шеболева И.И. Вставные конструкции в современном русском языке. – М.: Наука, 1965. – 186 с.; Малявин Д.В. Вводные элементы и вставки в составе предложения в современном английском языке: автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1971. – 24 с.; Котляр Т.Р. Вставные конструкции в современном русском литературном языке. – Киев: Наукова думка, 1975. – 212 с.; Кирюхина И.А. Вводные и вставные элементы в структуре текста. – Л.: ЛГУ, 1983. – 168 с.; Аникин А.И. Вставные конструкции и их стилистические функции. – М.: Высшая школа, 1988. – 190 с.; Ицкович В.А. Синтаксис современного русского языка. – М.: Просвещение, 1979. – 256 с.; Авласевич М.А. Вставные конструкции в современном русском языке. – Минск: БГУ, 1972. – 174 с.; Плоткин В.Я. Вставные элементы и структура предложения. – Л.: Наука, 1981. – 220 с.; Барчунов В.В. Вводные конструкции в современном русском языке. – М.: Наука, 1984. – 160 с.; Хатиашвили Л.Г. Вставные конструкции и их коммуникативные функции. – Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 198 с.; Руднев А.Г. Синтаксис осложненного предложения. – М.: Просвещение, 1968. – 240 с.; Седун Е.П. Вставные элементы в современном русском литературном языке. – Киев: Вища школа, 1980. – 176 с.; Бабакова И.А. Вводные и вставные конструкции в художественном тексте. – М.: Флинта, 1991. – 204 с.; Скребцова Т.Г. Вводные сочетания с глаголами говорить и сказать: взгляд с позиции грамматики конструкций. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкознание. 2022. Т.21. №5. – С. 108-117.; Миронина А.Ю., Шишкина И.С. Графическая репрезентация парантетических конструкций в общественно-политическом тексте. Philology. Theory & Practice. Original research article. August 1, 2016. – С. 135-138.

[6] Фитрат А. Ўзбек тили сарфи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 128 б. // Фитрат А. Ўзбекча тил сабоқлари. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 144 б. // Зоҳирий А. Турк тили грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1925. – 156 б. // Ғозиев Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – 320 б. // Ғозиев Ҳ. Ўзбек тили синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1973. – 248 б.

X. Ernazarova kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslarini yanada boyitdi[7]. Ushbu sanab o‘tilgan tadqiqotlarda parantez birliklarning grammatik tabiati, sintaktik xususiyatlari, gap va matn tarkibidagi funksional o‘rni, kommunikativ-pragmatik hamda lingvopoetik imkoniyatlari turli nuqtayi nazardan yoritilib, ularning o‘zbek tili sintaktik tizimidagi o‘rni ilmiy asoslandi. Shu asosda parantez konstruksiyalarni zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik, pragmalingvistik va matnshunoslik yo‘nalishlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish uchun muhim nazariy zamin yaratildi.

O‘zbek filologiyasida Tohir Malik ijodi bilan bog‘liq qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, T.T.Irisboyev va B.A.Xolikov tomonidan adabiyotshunoslik yo‘nalishida yozuvchining badiiy mahorati hamda asarlarining poetik xususiyatlari, M.R.Hamroyeva va S.X.Mahmudova tomonidan esa tilshunoslik yo‘nalishida asarlarining lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etilgan[8].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon va o‘zbek tilshunosligida parantez birliklarning sintaktik, semantik, pragmatik hamda lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish borasida muayyan ilmiy natijalarga erishilgan, biroq ularning muayyan yozuvchi ijodi, xususan, Tohir Malik asarlari misolida semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlarini kompleks tarzda tadqiq etish, parantez birliklarning badiiy matn kompozitsiyasi, muallif individual uslubi hamda personajlar nutqini shakllantirishdagi funksional imkoniyatlarini yaxlit tizim sifatida yoritishga yetarli e’tibor qaratilmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusining tanlanishiga asos bo‘lib, tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qo‘qon davlat

---

[7] Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1961. – 280 б. // Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. 3-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. // Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – 124 б. / Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар: Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1972. – 283 б. // Маҳмудов Н. Эргаш гапли қўшма гаплар // Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 210-291. // Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) талқини. – Тошкент: Фан, 2007. – 257 б. // Менглиев Б. Гапнинг кириш ва киритма кенгайтирувчилари. Замонавий ўзбек тили. II жилд. Синтаксис. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 208 б. // Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 2009. – Б. 137. // Xoshimov M.G‘. “Tilda parentez komponentli qo‘shma gaplarning umumiy nazariyasi muammolari (lingvopragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik aspektlar)”. Filol. fan. doktori (DSc) diss… avtoref. – Farg‘ona, 2024. – B. 96. // Ernazarova X. E. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridagi parantezalarning lingvokulturologik-lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2024. – 160 b.

[8] Ирисбоев Т.Т. Ҳозирги ўзбек детектив адабиётининг тараққиёт хусусиятлари (Тоҳир Маликнинг «Шайтанат» асари асосида): Филол. фан. номз. ... дис. 10.01.02 – Ҳозирги миллий адабиёт (ўзбек адабиёти). – Тошкент, 2001. – 157 б.; Холиков Б.А. Детектив романларда воқеликнинг бадиий талқинини тизимли моделлаштириш (Марио Пьюзонинг «Чўқинтирган ота» («The Godfather») ва Тоҳир Маликнинг «Шайтанат» асарлари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дис. 10.00.06. – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик. – Тошкент, 2018. – 170 б.; Ҳамроева М.Р. Тоҳир Малик бадиий асарларидаги антропонимларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. 10.00.01. – Ўзбек тили. – Бухоро, 2022. – 131 б.; Махмудова С.Х. Ўзбек тилида «остона» концептининг лингвомаданий хусусиятлари (Тоҳир Малик ва Саид Аҳмад асарлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дис. 10.00.01. – Ўзбек тили. – Қарши, 2022. – 140 б.

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tohir Malik asarlarida qo‘llangan parantezalarning semantik-grammatik va lingvopoetik jihatdan o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

parantez konstruksiyalar tushunchasining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilganlik holatini tahlil qilish;

parantez birliklarning badiiy matndagi sintaktik va matniy xususiyatlarini aniqlash;

parantezalarning ekspressiv-uslubiy imkoniyatlarini ochib berish;

parantez birliklarning gap bo‘laklari, gap va mikromatn bilan semantik-grammatik hamda kommunikativ-pragmatik bog‘lanish xususiyatlarini tadqiq etish;

adib asarlarida uchraydigan parantez birliklarning lingvopoetik jihatdan ta’sir kuchini, badiiy tasvir, obraz hamda personaj ruhiyati va muallif munosabatini ifodalashdagi vazifalarini yoritib berish;

tahlil natijalari yuzasidan parantez konstruksiyalarning semantik-grammatik hamda lingvopoetik jihatlari xususida xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Tohir Malik ijodida qo‘llangan parantez birliklar tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy materialini adibning besh kitobdan iborat “Shaytanat” romani tashkil etadi, xulosalarning umumlashtirilganligini ta’minlash maqsadida esa “Talvasa”, “Jinoyatning uzun yo‘li”, “Devona”, “Voy, onajonim”, “Somon yo‘li elchilari”, “Saodat saroyining kaliti”, “So‘nggi o‘q”, “Murdalar gapirmaydi”, “Iymonlashish umidi” hamda “Odamiylik mulki” (Axloq kitobi) kabi asarlar ham qo‘shimcha material sifatida tahlilga jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini Tohir Malik asarlarida qo‘llangan parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada deduksiya, induksiya, kuzatish, qiyoslash, sintez, lingvistik tahlil, tavsiflash, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tohir Malik asarlarida parantez birliklarning matn ichi kross-referensiya hamda paratekst darajasida, ya’ni izoh-snoska ichida ham qo‘llanishi kabi hodisalari birinchi marta ochib berildi; ularning funksional tarkibi aniqlanib, turli sintaktik shakllarda voqelanishi hamda badiiy matnda qo‘shimcha ma’no, munosabat va baholovchi mazmun ifodalash xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflandi;

parantez birliklarning gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gap va mikromatn bilan hosil qiladigan semantik-grammatik munosabatlari aniqlandi, shuningdek, ularning matnda fikr rivojini ta’minlash, izohlash, aniqlashtirish va mazmuniy bog‘lanishni kuchaytirishdagi ishtiroki hamda matn yaxlitligini ta’minlashdagi kommunikativ-pragmatik vazifalari aniq misollar bilan dalillandi;

Tohir Malik ijodida parantez birliklarning badiiy tasvirni shakllantirishdagi oltita mustaqil lingvopoetik vazifasi, jumladan, jahon lingvopoetika nazariyasida

hozirgacha alohida ajratilmagan diniy-islomiy atamalarni izohlash vazifasi ko‘rsatib berildi; shuningdek, adibning undov va so‘roq belgilaridan mustaqil paranteza sifatida foydalanishi uning individual uslubiga xos stilistik xususiyat sifatida asoslandi;

parantez birliklarni tahlil qilishning semantik-grammatik va lingvopoetik tamoyillari o‘zaro bog‘liqlikda takomillashtirilib, ularning xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini beruvchi ilmiy tavsif ishlab chiqildi va badiiy matnning mazmuniy, kommunikativ va estetik qatlamlarini tahlil qilishda qo‘llashning nazariy asoslari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

parantez birliklarni semantik-grammatik, kommunikativ-pragmatik hamda lingvopoetik jihatdan birlashtirgan holda kompleks tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilgan;

Tohir Malik asarlarida qo‘llangan parantez birliklarning funksional tasnifi (ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bilan aloqalanish turlari hamda ekspressiv-lingvopoetik vazifalar tipologiyasi) va ularni aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan;

parantez birliklarni badiiy matn tahlilida qo‘llashga oid amaliy tahlil namunalari (matn parchalari asosidagi tahlil modellari) tayyorlanib, ulardan filologik ta’lim jarayonida bevosita foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib chiqilayotgan tadqiqot maqsadi hamda masalalarining aniqligi, g‘oyalarining an’anaviy va zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy fikrlarning to‘g‘ri izohlanganligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asoslarga ega ekanligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot ishida qo‘llanilgan usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy ishlar, aniq manbalarga tayanilganligi, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar bilan asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, tilshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilot hamda muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Tohir Malik ijodi parantez konstruksiyalar nuqtayi nazaridan o‘zbek tilshunosligida hozirgacha alohida tadqiqot obyekti bo‘lmaganligi sababli, ushbu dissertatsiyada erishilgan ilmiy xulosalar adib ijodi materialidagi keyingi tadqiqotlar, shuningdek boshqa yozuvchilar ijodini qiyosiy o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun bevosita nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, tavsiya va tahlil mezonlaridan oliy ta’lim muassasalarida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Sintaksis”, “Matn lingvistikasi”, “Lingvopoetika”, “Nutq madaniyati va uslubiyati”, “Stilistika” fanlarini o‘qitishda, filologiya yo‘nalishlari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar hamda maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Tohir Malik asarlarida qo‘llangan parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” mavzusini o‘rganish asosida:

Tohir Malik asarlarida mavjud parantez birliklarning funksional tarkibi aniqlanib, ularning turli sintaktik shakllarda voqelanishi hamda badiiy matnda qo‘shimcha ma’no, munosabat va baholovchi mazmun ifodalash xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflanganligi hamda parantez birliklarning gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gap va mikromatn bilan hosil qiladigan semantik-grammatik munosabatlari ochib berildi, shuningdek, ularning matnda fikr rivojini ta’minlash, izohlash, aniqlashtirish va mazmuniy bog‘lanishni kuchaytirishdagi ishtiroki hamda matn yaxlitligini ta’minlashdagi kommunikativ-pragmatik vazifalari asoslanganligiga doir xulosa va ilmiy natijalaridan 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan “2023 KA 171 Mobility Higher 1011 Education students (Erasmus+)” nomli grant doirasida samarali va keng foydalanilgan. (Qo‘qon davlat universitetining 2026-yil 13-iyundagi 127-son ma’lumotnomasi). Natijada grant loyihasining ilmiy-amaliy ahamiyati ortgan.

Muallif asarlarida qo‘llangan parantez birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari aniqlanib, ularning muallif va personaj nutqi o‘rtasidagi munosabatlarni bir matn doirasida uyg‘unlashtirish, qahramonlarning ruhiy va ichki mulohazalarini ochib berish, baholovchi mazmunni kuchaytirish hamda badiiy tasvirning psixologik va estetik ta’sirchanligini oshirishda muhim sintaktik-poetik vosita ekanligi dalillanganligiga doir ilmiy xulosalardan ALM-202304076-05-sonli “Milliy neyropsixolingvistik tashxislash metodikasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 17-iyundagi 04/7066-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot o‘zbek tilida yaratilgan milliy neyropsixolingvistik metodlarni yaratish, ularning ishonchliligini ta’minlash va o‘qish ko‘nikmalari buzilgan bolalar uchun maxsus lingvistik testlarni yaratish va takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

“O‘zbekiston” teleradiokanalida uzatilgan “Adabiy jarayon”, “Ta’lim va taraqqiyot” nomli dasturlarda M.Qodirovaning dissertatsion tadqiqotida ilgari surilgan parantez birliklarni tahlil qilishning semantik-grammatik va lingvopoetik tamoyillari o‘zaro bog‘liqlikda takomillashtirilib, ularning xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida talqin qilish imkonini beruvchi ilmiy tavsif va badiiy matnning mazmuniy, kommunikativ va estetik qatlamlarini tahlil qilishda qo‘llashning nazariy asoslari aniqlashtirilganligiga, parantez birliklarni tahlil qilishning semantik-grammatik va lingvopoetik tamoyillari o‘zaro bog‘liqlikda takomillashtirish va badiiy matnning mazmuniy, kommunikativ va estetik qatlamlarini tahlil qilishda qo‘llashning nazariy asoslarini aniqlashtirishga oid tavsiyalarga oid dalillardan foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2026-yil 7-iyuldagi 02-09-1326-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning ilmiy-ma’rifiy salohiyatini oshirish, parantez birliklarni tahlil qilishning semantik-grammatik va lingvopoetik tamoyillari o‘zaro bog‘liqlikda takomillashtirish va badiiy matnning mazmuniy, kommunikativ va estetik qatlamlarini tahlil qilishda qo‘llashning nazariy asoslarini aniqlashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi **“Parantez birliklarning nazariy asoslari va badiiy matndagi xususiyatlari”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Unda parantez birliklarning nazariy-tarixiy asoslari, badiiy matndagi sintaktik-matniy xususiyatlari hamda ekspressiv-uslubiy imkoniyatlari tahlil qilingan.

Bobning dastlabki fasli ***“Tilshunoslikda parantezalarning o‘rganilishi”*** tarzida nomlangan. Paranteza atamasi qadimgi yunoncha παρένθεσις so‘zidan olingan bo‘lib, dastlab miloddan avvalgi IV asrda Dionisiy Traxning grammatikaga oid asarida qo‘llanilgan. D.M.Jamolitdinova o‘zbek va rus tilshunosligida parantez birliklarning o‘rganilishini ikki asosiy davrga ajratadi[9]. Rus tilshunosligining birinchi davriga oid tadqiqotchilardan biri E.Filomafitskiy asosiy gap va kiritma o‘rtasida maxsus aloqa mavjudligini ta’kidlab, kiritmalarni mustaqil kategoriya sifatida asoslashga urinadi[10]. Yevropa tilshunosligida esa Otto Jespersen parenthetical clause atamasini qo‘llab, parantez konstruksiyalarning sintaktik tuzilishini izohlagan bo‘lsa[11], Lyusen Tenier ularni asosiy gapdan butunlay mustaqil emas, balki bog‘lovchi-qo‘shimcha element sifatida tahlil qilgan[12], Ernst Fraenkel esa nemis tilshunosligida parantez birliklarga sintaksis, tarixiy grammatika va struktural semantika doirasida e’tibor qaratgan[13].

XX asrning 40-yillaridan boshlab rus tilshunosligida A.B.Shapiro kiritmalarni kirishlardan alohida kategoriya sifatida ajratish zarurligini asoslab,

[9] Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Ф.ф.н. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 19.
[10] Жамолиддинова Д.М. Кўрсатилган асар. – Б. 20.
[11] Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles. – Heidelberg: Carl Winter, 1909–1949.
[12] Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Librairie C. Klincksieck, 1959. – P. 690.
[13] Fraenkel E. Syntax der litauischen Postpositionen und Präpositionen. – Heidelberg: C. Winter, 1929. – P. 292.

ularning grammatik shakllanganligi va gap boshida kela olmasligini asosiy farq sifatida ko‘rsatadi[14]. O‘zbek tilshunosligida shu davrda A.G‘ulomov kiritma so‘z va kiritma gaplarni “kiritma konstruksiyalari” nomi bilan umumlashtirgan bo‘lsa[15], I.Toshaliyev kiritma konstruksiyalarning tuzilishi, struktural-funksional turlari hamda punktuatsiyasini monografik darajada tadqiq etgan[16].

XXI asrga kelib mavzu yapon va xitoy tilshunosligini ham qamrab olib, yangi bosqichga ko‘tarildi: Outi Duvallon parantezalarni suhbatdagi sintaktik, interaktiv va prozodik vosita sifatida[17], Kahane va Pietrandrea esa makrosintaktik “Unités Illocutoires Associées” birligi sifatida tahlil qilgan[18]. Shuningdek, James Griffiths, Karin Pittner, Catalina Fuentes Rodríguez kabi olimlar parantezalarning sintaktik mustaqilligi va pragmatik funksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yangi nazariy asosda yoritdilar[19], T.Skrebtsova esa konstruksion grammatika nuqtayi nazaridan tadqiq etdi[20].

Yuqoridagi tahlil asosida biz parantez birliklarni o‘rganish tarixini shartli ravishda uch bosqichga ajratishni maqsadga muvofiq deb topdik: 1) tasviriy-punktuatsion bosqich (miloddan avvalgi IV asrdan XX asr boshigacha), bunda paranteza asosan tinish belgisi va umumiy sintaktik hodisa sifatida qaralgan; 2) grammatik-kategorial bosqich (XX asr 40-yillaridan XX asr oxirigacha), bunda paranteza kirishlardan alohida, mustaqil grammatik kategoriya sifatida ajratib olingan; 3) funksional-kognitiv bosqich (XXI asr boshlaridan hozirgi kungacha), bunda paranteza sintaktik-prozodik interfeys, makrosintaktik yondashuv hamda konstruksion grammatika nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Ushbu davrlashtirish shuni ko‘rsatadiki, mavzuning aynan bir yozuvchi ijodi materialida, xususan Tohir Malik asarlari misolida, uchinchi bosqich metodologiyasi asosida kompleks tadqiq etilmaganligi ushbu dissertatsiya tanlanishining asosiy sababi bo‘ldi.

Bobning ikkinchi fasli ***“Parantez birliklarning badiiy matndagi sintaktik va matniy xususiyatlari”*** deb nomlanadi. Ushbu faslda parantez birliklarning ikki qatlamli tabiati, ya’ni sintaktik (bir gap doirasidagi) va matniy (gap chegarasidan tashqaridagi) xususiyatlari alohida-alohida tahlil qilindi. A.A.Mesler parantezalarni faqat gap emas, balki matn tarkibida o‘rganish zarurligini ta’kidlab, ularning gap boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishi matnni segmentlashtirish, ya’ni gap ichida “bo‘linish effekti”ni yuzaga keltirishga xizmat qilishini asoslaydi[21]. Bu tezisni R.S.Samolyotova ham qo‘llab-quvvatlab, parantezalarning matn bo‘ylab harakatlanishi, matnning tematik rivojini ta’minlashi hamda unga konnotativ-

[14] Шапиро А.Б. Современный русский язык. Пунктуация. – М.: Просвещение, 1974. – 320 с.
[15] Ғуломов А., Маъруфов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм. Синтаксис. – Тошкент: Ўздавнашр, 1946. – 108 б.
[16] Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – 124 б.
[17] Outi Duvallon. Parenthesis as a resource in the grammar of conversation. January 2005. – P. 45.
[18] Kahane S., Pietrandrea P. Les parenthétiques comme «Unités Illocutoires Associées»: Une perspective macrosyntaxique. Linx, № 61, 2009. – Pp. 49–70.
[19] Griffiths J. Parentheticals and the Dynamics of Syntax. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 328 p.; Pittner K. Parenthetische Konstruktionen im Deutschen. – Tübingen: Niemeyer, 2004. – 214 S.; Fuentes Rodríguez C. La sintaxis de los elementos parentéticos. – Sevilla: Universidad de Sevilla, 1998. – 221 p.
[20] Скребцова Т.Г. Вводные сочетания с глаголами говорить и сказать: взгляд с позиции грамматики конструкций. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2: Языкознание. 2022. Т.21. №5. – С. 108–117.
[21] Мецлер А.А. Структурные связи в тексте (Парентезные конструкции). – Кишинёв: Штиинца, 1987. – 141 с.

stilistik nozikliklar kiritishini ko‘rsatadi[22]. V.A.Shaymiyev esa kiritmalarni faqat qabul qiluvchi gap chegarasida ko‘rish yetarli emasligini, ularning badiiy asarda “kontrast vaziyatlar”ni yaratish vazifasini bajarishini ta’kidlaydi[23], O.V.Aleksandrova esa parantetik kiritma mavjud bo‘lgan gapning alohida olinganda to‘liq tasavvur bermasligini, fikr predmetining faqat matn doirasida aniq bo‘lishini asoslaydi[24].

Tadqiqotimiz davomida ushbu nazariy qarashlarni Tohir Malik ijodi materialida yangi dalillar bilan boyitdik. Xususan, “Jinoyatning uzun yo‘li” qissasida biz muallifning o‘z kitobining boshqa boblariga bevosita ishora qiluvchi, ya’ni matn ichi kross-referensiya vazifasini bajaruvchi parantezalarni aniqladik: *“...Avvalgi bobda ham bu xususda qisqa tarzda bo‘lsa-da, so‘z yuritib edik, yodingizdadir?”* (“Jinoyatning uzun yo‘li”, 47-bet) misolida paranteza kitobning oldingi bobiga, boshqa bir misolda esa keyingi bobga ishora qiladi. Bunday parantezaning ma’nosi faqat kitobning boshqa qismiga murojaat qilinganda to‘liq ochiladi, bu esa Aleksandrova tezisining eng aniq, jismoniy ma’nodagi tasdig‘idir.

Bundan tashqari, “So‘nggi o‘q” qissasida matniy xususiyatning yana bir ko‘rinishi, ya’ni paratekst darajasidagi paranteza aniqlandi: muallif dialogdagi “enkevede” so‘ziga sahifa ostidagi izoh (snoska) orqali tushuntirib, izoh matnining o‘zi ichida yana qo‘shimcha paranteza qo‘llagan. Shuningdek, “Jinoyatning uzun yo‘li”da ichki-ichki qistirma hodisasi ham qayd etildi: “xuligan” so‘zining kelib chiqishi haqidagi ko‘p gapli tashqi paranteza ichida “familiyasi” so‘zidan iborat sodda ichki paranteza joylashgan. Nihoyat, J.Griffiths va M.de Vries parantezalarning asosiy gap semantikasiga ta’sir qilmasligini, biroq diskurs tuzilishiga ta’sir qilishini, xususan gap oxiridagi parantezalar mustaqil ravishda umumiy javob olishi mumkinligini asoslaydilar[25], bu nazariya bizning pozitsiya-mustaqillik nisbati haqidagi kuzatuvlarimiz bilan mos keladi.

Bobning uchinchi fasli ***“Parantez birliklarning ekspressiv-uslubiy imkoniyatlari”*** deb nomlangan. A.G‘ulomov va M.Asqarova kirish so‘zlarning so‘zlovchining subyektiv munosabatini, emotsiyalarini hamda fikrning umumiy bahosini ifodalashini ko‘rsatib, ularni olti semantik guruhga ajratadi[26]. I.Toshaliyev esa kiritmalarning ekspressiv vazifasini yetti turga (konkretlashtirish-sharhlash, asosiy gap mazmunini rivojlantirish, subyektiv-emotsional munosabat, xarakteristika berish, bayon uslubini izohlash, fikrlarni bog‘lash, manba ko‘rsatish) ajratib tahlil qiladi[27]. Keyingi davr tadqiqotchilaridan G‘.Abdurahmonov va A.Rustamov ushbu tasnifni yanada takomillashtirib, quyidagi jadvalda aks etgan olti ekspressiv vazifani asoslaydilar[28] (1-jadval):

---

[22] Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Ф.ф.н. дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 43.
[23] Жамолиддинова Д.М. Кўрсатилган асар. – Б. 44.
[24] Жамолиддинова Д.М. Кўрсатилган асар. – Б. 45.
[25] Griffiths J., de Vries M. Parenthesis and presupposition in discourse. Linguistics in the Netherlands 31. – Amsterdam: John Benjamins, 2014. – P. 39–52.
[26] Ғуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 191–192.
[27] Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 33–50.
[28] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 224 б.

1-jadval.

t/r	Ekspressiv vazifasi	Parantez birliklar
1	so‘zlovchining taxmin, ikkilanish, gumon, shubha, qat’iy ishonch kabi munosabatlarini bildiradi	to‘g‘ri, shubhasiz, balki, haqiqatan, gapning rosti, ehtimol, shekilli, chamasi
2	aytilayotgan fikrga so‘zlovchining emotsional bahosini bildiradi	baxtimizga, afsuski, ajabo, koshki, esizgina, xayriyat, hayronman
3	fikr manbasini, kimga qarashli ekanligini ko‘rsatadi	mo‘ljalimcha, fikrimcha, bizningcha, uning aytishicha, aytishlariga qaraganda
4	fikrning ifodalanish usuliga munosabatni ko‘rsatadi	bir so‘z bilan aytganda, qisqasi, boshqacha aytganda, gapning po‘stkallasi
5	fikrning tartibi, xulosasi, avvalgi va keyingi fikr munosabatini ko‘rsatadi	aytganday, masalan, xususan, demak, avvalo, so‘ngra, birinchidan, xullas
6	suhbatdoshning diqqatini jalb qilishga qaratiladi	ko‘rdingizmi, shunday emasmi, o‘zingizga ma’lum, menga qarang

Parantez birliklarning ekspressiv vazifalari

M.Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, parantez birliklar matnga tugallangan gapdan ko‘ra kengroq mazmun olib kirib, nutqning to‘la anglanishi uchun zarur ma’lumot berish, noaniq qismlarga aniqlik kiritish hamda his-tuyg‘ularni ifodalash vazifalarini bajaradi[29]. Rus tilshunosligida V.V.Shigurov va T.A.Shigurova ingliz tilidagi *I think, I suppose* kabi fe’llardan hosil bo‘lgan parantez-modal birliklarning uch subyektiv-modal ma’noni (ishonch-taxmin, manba ko‘rsatish, emotsional baho) ifodalashini asoslasa[30], N.V.Knyazeva va E.E.Korolkova ekspressivlikni so‘zlovchining hissiy holatini ifoda etish qobiliyati sifatida tavsiflaydilar[31].

Yuqoridagi barcha olti vazifa “Shaytanat” romani materialida sinovdan o‘tkazilib, izchil tasdiqlandi. Masalan, *“Qizining o‘g‘irlanishi (aynan o‘g‘irlanganiga Asadbek shubha qilmaydi) ana shu yomg‘irdan nishon edi”* (“Shaytanat”, 1-kitob, 25-bet) misolida ishonch-rostlik ma’nosi, *“Afsuski, sezgi inson vujudiga davomli ravishda hukmronlik qila olmaydi”* (“Shaytanat”, 5-kitob,

[29] Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. – B. 104–105.

[30] Shigurov V.V., Shigurova T.A. Parenthetical-modal type of using finite verbs in the Russian language. Asian Social Science. 2015. Vol. 11, No. 8. – P. 292–298.

[31] Князева Н.В., Королькова Е.Е. К вопросу об экспрессивных синтаксических средствах языка. Филологический аспект. – Нижний Новгород, 2019. №4 (48). – С. 7–14.

72-bet) misolida hissiy baho ma’nosi, *“Gapning qisqasi, Asadbek kuyovidan gumonda ekan”* (“Shaytanat”, 2-kitob, 85-bet) misolida esa fikr ifoda usuliga munosabat ma’nosi yaqqol namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqotning II bobi **“Tohir Malik asarlarida parantez birliklarning semantik-grammatik xususiyatlari”** deb nomlangan. Bobning ***“Gapning bosh bo‘laklari bilan aloqalangan parantez birliklar”*** nomli birinchi faslida ega va kesim bilan bevosita aloqalangan parantezalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular struktura jihatidan besh xil (so‘z, so‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shma gap, mikromatn) shaklda namoyon bo‘ladi. Bizningcha, bu struktura xilma-xilligi tasodifiy emas: struktura murakkablashgan sari parantezaning psixologik-kompozitsion vazifasi ham chuqurlashib boradi. Masalan, *“Taqdir (Asadbek emas!) qo‘limga to‘pponcha tutqizgan ekan...”* (“Shaytanat”, 3-kitob, 71-bet) misolidagi sodda gap shaklidagi paranteza qahramonning ichki nutqini, keskin inkorini va dramatik holatini bir vaqtning o‘zida ifodalaydi, bunday ko‘p qatlamlilik so‘z yoki so‘z birikmasi shaklidagi parantezalarda kuzatilmaydi.

Ega bilan aloqalangan parantezalar orasida alohida diqqatga sazovori kirish so‘z turidagi parantezalardir. Masalan, *“Jamshidni ko‘mib kelishganidan beri, ayniqsa, qizi Zaynab o‘zini osib qo‘yganidan beri, Asadbek yursa ham, tursa ham sodiq yigitini o‘ylardi”* (“Shaytanat”, 2-kitob, 103-bet) gapida *ayniqsa* kirish parantezasi ega pozitsiyasida kelgan Asadbekni alohida ta’kidlash uchun qo‘llangan. Bizningcha, bunday holatlarda paranteza sof grammatik vosita emas, balki muallifning matn ichidagi diqqat markazini boshqarish strategiyasining bir qismi sifatida baholanishi lozim.

“Har satri, sahifasidan iste’dod nafasi (chuqur badiiy tadqiq ruhi) ufurib turibdi”. (“Shaytanat”, 3-kitob, 370-bet). Ushbu gapda ega vazifasida kelgan *iste’dod nafasi* so‘ziga so‘z birikmasi shaklidagi paranteza, ya’ni *chuqur badiiy tadqiq ruhi* bevosita aloqalangan.

Kesim bilan aloqalangan parantezalar tahlili esa boshqacha qonuniyatni ochib berdi: bunday parantezalar ko‘pincha butun gap yoki mikromatn shaklida kelib, muallifning bashoratli yoki baholovchi pozitsiyasini ifodalaydi. Masalan, *“Demokratiya degan gap chiqdi-yu yana umid chirog‘i yonganday bo‘ldi. (Ana shu umid chirog‘ining oxir-oqibat uylarga o‘t qo‘yajagini kim o‘ylabdi?)”* (“Shaytanat”, 2-kitob, 42-bet) misolida paranteza asosiy gap kesimini nafaqat semantik jihatdan izohlaydi, balki asar davomida sodir bo‘ladigan fojiali voqealarga oldindan ishora qiladi. Bizningcha, bu, kesim bilan aloqalangan parantezalarning ega bilan aloqalanganlaridan farqli, kelajakka yo‘naltirilgan, prognostik xususiyati bo‘lib, bu jihat dissertatsiyada birinchi marta alohida ta’kidlanmoqda.

“Daryo qurib qolgan (Nahot yetib kelgunimcha qurib bitdi, deb o‘ylaydi u), unda-bunda ko‘lmaklar ko‘zga tashlanadi”. (“Shaytanat”, 2-kitob, 6-bet). Ushbu gapdagi qo‘shma gap shaklidagi paranteza asosiy gapdagi personajning daryo qurib qolganligi haqidagi o‘y-hayollarini izohlab kelgan.

“Ikkinchi darajali gap bo‘laklari bilan aloqalangan parantez birliklar” nomli ikkinchi faslda to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol bilan aloqalangan parantezalar tahlili ularning bosh bo‘laklarga nisbatan ancha xilma-xil va kengroq aloqalanish

maydoniga ega ekanligini ko‘rsatdi. To‘ldiruvchi bilan aloqalangan parantezalar orasida sodda gap shakli ustunlik qiladi, masalan, *“Bundan ikki maqsad ko‘zlangan edi: biri, Kozlov shu yerga ham kelishi mumkinligi bo‘lsa (buni haqiqatdan yiroqligini o‘zlari ham bilishadi)…”* (“Shaytanat”, 3-kitob, 299-300-betlar) misolida paranteza to‘ldiruvchi vazifasidagi otlashgan fe’l shaklini kengaytirib izohlaydi.

Aytish mumkinki, parantez birliklar gap tarkibidagi to‘ldiruvchi bilan bilvosita, ya’ni mazmunan aloqalanganda, aksariyat hollarda paranteza va aloqalangan to‘ldiruvchi bir xil grammatik ko‘rsatkichga ega bo‘ladi, ya’ni ikkisi ham bir xil so‘roqni qabul qiladi: *“Biron bir ayol xiyonat ko‘chasiga kirsa, eridan (Xudodan emas!) qo‘rqadi. Oilasi buzilishidan cho‘chiydi… Zaynab u toifadan emas”*. (“Shaytanat”, 3-kitob, 297-bet).

Aniqlovchi bilan aloqalangan parantezalar tahlilida diqqatga sazovor jihat shundaki, aynan shu turkumda paranteza bir vaqtning o‘zida ikki xil gap bo‘lagi (masalan, ham aniqlovchi, ham to‘ldiruvchi yoki ham aniqlovchi, ham ega) bilan aloqalanish holatlari boshqa turkumlarga qaraganda ko‘proq uchraydi. Masalan, *“Shu azim shaharning yana qaysidir mavzeida, yana qaysidir ikki xonalik sovuq (balki issiqdir, Xudo biladi!), chakka o‘tayotgan (balki chakka o‘tmas) uyda bir fizik (balki kimyogar) haqiqat faqat fizikada (balki kimyoda) deb bahs yuritayotgan bo‘lsa ajab emas”* (“Shaytanat”, 1-kitob, 143-bet) gapida to‘rtta parantezaning ikkitasi aniqlovchi, qolgan ikkitasi esa ega va hol bilan bir vaqtda aloqalanadi. Bizningcha, bu, aniqlovchi tabiatining o‘zi boshqa gap bo‘laklariga nisbatan semantik jihatdan kengroq, ko‘p qirrali ekanligining sintaktik dalilidir.

Mikromatn shaklidagi paranteza bevosita aniqlovchi bilan aloqalanadi: *“Birovga yaxshilik ham, yomonlik ham qilmaydigan odamdan ehtiyot bo‘lish kerakmi, yo faqatgina ablahlikni kasb qilib olgandan qo‘rqish zarurmi, Zohid bu masalani ham o‘zicha hal qilib olgan: u uchun keyingi toifa xatarli emas, chunki bunday odamlarning hujumiga ertayu kech shay turasan. Ilimliq (Zohid birinchi toifani shunday ataydi) odamlar oftobda qolgan suvga o‘xshaydi. Chanqab kelasan-u icholmaysan, ichsang ko‘ngling ag‘dariladi”*. (“Shaytanat”, 4-kitob, 112-bet) Ushbu parchada qo‘llangan aniqlovchi bilan aloqalangan paranteza mikromatn shaklida bo‘lib, asosiy gapdan alohida, qo‘shimcha izoh vazifasini bajargan.

